

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxonovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Xurramova Saodat Xabibovna</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVİY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIY IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVİY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQUISHINING IJTIMOYIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhriyoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUYJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Hazratoli Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIY MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

ISSUES OF HUMAN RIGHTS PROTECTION IN INTERNATIONAL BODIES

Makhamatov Makhmud Maxamataminovich

Associate Professor of the Department of International Law and Human Rights,
Tashkent State University of Law,
Doctor of Philosophy (PhD) in Law
E-mail: mmahmud34@mail.ru

Abstract. This article describes the concept of mechanisms for the protection of human rights in international bodies, their main features, classification, the process for activities of the auxiliary human rights bodies established within the UN, the main directions of human rights treaty bodies, and the procedure for submitting individual complaints. As part of the comparative analysis, an interaction analysis was conducted between established and functioning international mechanisms.

Keywords: human rights, international protection mechanism, international oversight bodies, individual complaints, international treaty bodies.

INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI

Maxamatov Maxmud Maxamataminovich,

Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida dotsenti,
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson huquqlarini xalqaro organlarda himoya qilish mexanizmlari tushunchasi, ularning asosiy xususiyatlari, tasniflanishi, xususan BMT tarkibida tashkil etilgan inson huquqlari bo'yicha yordamchi organlar, inson huquqlari bo'yicha shartnomaviy organlarning faoliyat tartibi, asosiy yo'nalishlari, individual shikoyatlarni topshirish tartibi yoritilgan. Tashkil etilgan va faoliyat olib borayotgan xalqaro mexanizmlarning o'zaro faoliyati qiyosiy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, xalqaro himoya mexanizmi, xalqaro nazorat organlari, individual shikoyatlar, xalqaro shartnomaviy organlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N69>

Kirish. Dunyo hamjamiyati umuminsoniy qadriyatlarga, jumladan, erkinlik, tenglik, birdamlik, bag'rikenglik, insonning barcha huquqlarini hurmat qilish va davlatlarning umumiy mas'uliyatiga sodiqligini bir necha bor tasdiqladilar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti inson huquqlari asoslari va standartlarini mustahkamlash bo'yicha fundamental yordam ko'rsatish bo'yicha sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda. Ushbu chora-tadbirlar natijasida inson huquqlari bo'yicha xalqaro organlar tizimi shakllandi va faol rivojlanmoqda. Ularning asosiy vazifasi inson huquqlari va erkinliklarini xalqaro darajada, xalqaro shartnomalar asosida himoya qilishdir.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi fundamental tamoyillarni amalga oshirish uchun ularni xalqaro shartnomalarda aniqlashtirishni talab etdi. Bu esa o'z navbatida xalqaro standartlarning shakllantirdi. Biroq standartlarning ishlab chiqilishi bilan ularni o'z o'zidan ijro etilishi yoki amalda tatbiq etilishiga olib kelmadi. Ushbu holat natijasida xalqaro hamjamiyat tomonidan xalqaro shartnomalar va ularda belgilangan normalarning samarali tatbiq etilishini ta'minlashni asosiy vazifa sifatida belgilagan xalqaro nazorat organlarini tashkil etildi.

Tadqiqotchilar Sveshnikova L.N., Xramova O.E. fikriga ko'ra, inson huquqlari bo'yicha xalqaro nazorat – bu xalqaro huquqning normalari va umume'tirof etilgan tamoyillariga muvofiq va vakolatli xalqaro tashkilot yoki xalqaro shartnoma tomonidan belgilangan mandat doirasida amalga oshiriladigan, inson huquqlari to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish to'g'risida ma'lumot to'plash va tahlil qilish, inson huquqlari tamoyillari va normalari, ularning bajarilish darajasini baholaydigan va buzilishlarni bartaraf etishga, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga yaxshiroq hurmatni ta'minlashga, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan buzilishlarning oldini olishga qaratilgan tavsiyalarni berishni o'z ichiga olgan faoliyat hisoblanadi [1].

Inson huquqlarini himoya qilishning xalqaro mexanizmlari deganda xalqaro huquq normalariga muvofiq tashkil etilgan, asosiy maqsadi inson huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'lgan xalqaro tashkiliy tuzilmalar (qo'mitalar, ishchi guruhlar, maxsus ma'ruzachilar) tushuniladi. Shuningdek, huquq va erkinliklarni himoya qilish shakllari va bunday mexanizmlarning o'zaro ta'siri masalalarini taqdim etish nuqtai nazaridan xalqaro mexanizm tushunchalari va xalqaro protseduralar o'rtasidagi farqni ajratish kerak.

Muhokama va natijalar. Inson huquqlari tizimining asta-sekin globallashuvi BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilishning universal tizimi yaratilishiga olib keldi. Bugungi kunda universal tashkilot homiyligida xalqaro standartlarni ishlab chiqish va qabul qilingan hujjatlarga rioya etilishini xalqaro nazorat qilish bilan shug'ullanuvchi organlarning keng tarmoqlangan tizimi faoliyat yuritmoqda. Ta'kidlash joizki, mazkur tizim doirasida murakkab organlar tarmog'i ishlaydi. Bu tarmoqqa Tashkilotning bosh organlari, konvension (shartnomaviy) organlar, shuningdek, mamlakatlar va mavzular bo'yicha taqsimlangan maxsus ma'ruzachilar, ishchi guruhlar va qo'mitalar kiradi [2].

BMT Bosh Assambleyasining eng muhim vazifasi vakillik funksiyalarini bajarishdir. Shu ma'noda, Bosh Assambleyaga dolzarb kun tartibini, jumladan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi masalalarni shakllantirish mas'uliyati yuklatilgan. Bunda, inson huquqlari sohasidagi yangi me'yor va standartlarni ko'rib chiqish hamda tasdiqlash bo'yicha muhim vakolatlarni qayd etib o'tish lozim. Bu vazifalar uning tarkibidagi qator yordamchi tuzilmalar, xususan, inson huquqlari buzilishining alohida masalalari yuzasidan ekspertlik faoliyatini olib boruvchi, huquqni himoya qilish tizimini yangilash va isloh etishga qaratilgan mavzuli tadqiqotlarni boshlovchi hamda rezolyutsiyalar tayyorlaydigan bir qator yordamchi organlar orqali amalga oshiriladi [11].

BMT Nizomidagi "erga omnes" majburiyatlariga binoan, davlatlar Tashkilot bilan hamkorlikda va mustaqil ravishda harakat qilishlari shart. Mazkur qoidalar jahon hamjamiyatining fikri va irodasini ifodalaydi hamda "yumshoq huquq" manbalari sifatida xizmat qiladi [1]. Bularning barchasi BMT Bosh Assambleyasi inson huquqlarini himoya qilish sohasida hal qiluvchi organ ekanligidan dalolat beradi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt hamda 1976-yilgi Protokolga binoan Inson huquqlari bo'yicha qo'mita ta'asis etildi. Qo'mitaga biron-bir ishtirokchi davlatning boshqa ishtirokchi davlat tomonidan Pakt qoidalarini buzilganligi to'g'risidagi xabarlarini ko'rib chiqish vakolati berilgan (bunda davlatning bunday ishlar bo'yicha Qo'mita vakolatini tan olish huquqi nazarda tutiladi). 1976-yilgi Protokol bilan kiritilgan muhim qo'shimcha sifatida Qo'mitaga yakka tartibdagi shikoyatlarni topshirish imkoniyati belgilandi [3]. Qo'mita, shuningdek, ishtirokchi davlatlarning Pakt qoidalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'ruzalarini ham ko'rib chiqadi.

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktdan farqli o'laroq, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi paktda nazorat organi sifatida tegishli qo'mitani tashkil etish ko'zda tutilmagan, ayniqsa, yakka tartibdagi shikoyatlarni ko'rib chiqadigan organ tuzish nazarda tutilmagan edi. Faqatgina 1985-yilda EKOSOS qaroriga binoan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi ta'asis etildi [4]. Qo'mita tomonidan amalga oshiriladigan nazorat jarayoni Paktga a'zo davlatlarning ma'ruzalarini ko'rib chiqish va tegishli tavsiyalar berishdan iborat.

Inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi nazoratni inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro shartnomalar asosida tashkil etilgan boshqa qo'mitalar ham amalga oshiradi. Davlatlar bu qo'mitalarga tegishli shartnoma qoidalariga rioya etilishi to'g'risida milliy ma'ruzalar taqdim etishi shart. Aksariyat xalqaro-huquqiy hujjatlarda shikoyat berish tartibi ham ko'zda tutilgan. Bola huquqlari bo'yicha qo'mita 1989-yilgi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq tuzilgan. Qiynoqlarga qarshi qo'mita 1984-yilgi Qiynoqlarga va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga qarshi konvensiya asosida faoliyat yuritadi. 1979-yilgi Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq Ayollarga nisbatan kamsitishni bartaraf etish qo'mitasi ish olib boradi. Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish qo'mitasi 1965-yildagi Irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga asosan, Barcha mehnat-migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish qo'mitasi esa 1990-yildagi Barcha mehnat-migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyaga muvofiq tashkil etilgan.

Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitani tuzishni nazarda tutuvchi Fakultativ protokol (2008-yil 3-maydan kuchga kirgan) bilan birgalikda 2006-yildagi Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Qo'mita vakolatiga davlatlarning hisobotlarini va individual shikoyatlarni ko'rib chiqish, shuningdek, nogironlar huquqlari buzilishini tekshirish kiradi. 2006-yil 20-dekabr da BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Barcha shaxslarni majburiy yo'qolishdan himoya qilish bo'yicha xalqaro konvensiya qabul qilingan. Konvensiya nazorat mexanizmini — Majburiy yo'qolishlar bo'yicha qo'mitani tuzishni nazarda tutadi. Bu qo'mita Konvensiya ishtirokchi-davlatlarining uning qoidalarini amalga oshirish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini; yo'qolgan shaxslarning qarindoshlari yoki ularning qonuniy vakillari tomonidan yo'qolgan shaxslarni qidirish va ularning joylashgan joyini aniqlash to'g'risidagi iltimoslarni; boshqa ishtirokchi-davlat tomonidan Konvensiyaga rioya qilinmaganligi to'g'risidagi individual shikoyatlar va ishtirokchi-davlat xabarlarini ko'rib chiqadi. Qo'mita, shuningdek, ishtirokchi davlat hududida jiddiy qonunbuzarliklar to'g'risida ma'lumot olinganda, tashrif uyushtirish vakolatiga ega.

BMT doirasida inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish mexanizmlarida ularning faoliyat samaradorligidan kelib chiqib islohotlar ham amalga oshirilgan. Xususan, BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi faoliyatini tugatilib, uning o'rniga Inson huquqlari kengashi tashkil etildi. Yangi organni tashkil etish to'g'risidagi qaror Komissiya faoliyatining samarasizligi bilan bog'liq edi [5].

Ta'kidlash joizki, Kengash Inson huquqlari bo'yicha komissiya davrida amal qilgan tartib-qoidalar samaradorligini oshirish imkoniyatidan samarali foydalandi. Kengash doirasida "1503-tartib" asosida yaratilgan va ikkita ishchi guruh tashkil etilishi natijasida sezilarli darajada takomillashtirilgan Shikoyatlarni ko'rib chiqish tartib-qoidasi, qayta ko'rib chiqilgan maxsus tartib-qoidalar, hamda universal davriy ko'rib chiqishning yangi tartib-qoidasi amal qilmoqda.

Inson huquqlari bo'yicha kengash BMT Bosh Assambleyasining yordamchi organi bo'lib, BMT Inson huquqlari bo'yicha komissiyasining huquqiy vorisi hisoblanadi. Kengashga BMT Bosh Assambleyasi tomonidan BMT Ustavining 13-moddasiga muvofiq o'zining inson huquqlarini himoya qilish vazifasini bajarish uchun asosiy mas'uliyat yuklatilgan. Kengash faoliyatining mavzuli yo'nalishi shundan iboratki, u inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun forum vazifasini o'taydi. Inson huquqlarini himoya qilishga bag'ishlangan tavsiyalar va rezolyutsiyalarni ishlab chiqish BMT tizimining barcha organlari ("Maxsus tartib-taomillar mexanizmi") doirasidagi faoliyatni samarali birlashtirish va muvofiqlashtirishga, shuningdek, muayyan sohada xalqaro huquqni rivojlantirishga qaratilgan.

Ishtirokchi davlatlar tomonidan majburiyatlarga rioya etilishini nazorat qilish "Universal davriy sharh" mexanizmi orqali amalga oshiriladi. Bu mexanizm mintaqa yoki mamlakatdagi vaziyat haqida dolzarb ma'lumotlarni olish, shuningdek, universal va mintaqaviy bitimlarda, jumladan ular tomonidan qabul qilingan boshqa xalqaro majburiyatlarda ishtirok etish asosida ishtirokchi mamlakatlarning yillik hisobotlarini to'rt yarim yilda bir marta ko'rib chiqish va tahlil qilish imkonini beradi [6].

Yuqorida qayd etilgan organlarning faoliyat tartibi, ko'rib chiqiladigan masalalaridan kelib chiqqan holda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini bir necha mezonlarga ko'ra tasniflash mumkin. Jumladan, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi qaysi hududlarni qamrab olganligi jihatidan xalqaro darajada universal va mintaqaviy mexanizmlarga ajratadi. Universal mexanizmga ko'ra, barcha davlatlar aholisi muayyan shartlar asosida o'z huquqlarini xalqaro organlar doirasida himoya qilishi mumkin. Universal mexanizmlar sifatida BMTning ustav organlari, yordamchi organlari, shuningdek shartnomaviy organlari va boshqa ixtisoslashgan muassasalarini kiritish mumkin. S.B.Kotlyarov, E.A. Chicherov fikriga ko'ra, ushbu mexanizmlar xalqaro nazorat inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish funksiyalarining noyob uyg'unligiga ega [7]. Inson huquqlarini himoya qilishning mintaqaviy mexanizmlari har bir mintaqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda ular Yevropa tizimi, Amerika tizimi, Afrika tizimi kabi tarzda mavjud [10].

Inson huquqlarini xalqaro darajada himoya qiluvchi organlar shakliga ko'ra ularni sud, kvazi-sud va sud bo'lmagan tuzilmalarga ajratiladi. Inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro sud organlari BMT Xalqaro sudi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Inson huquqlari bo'yicha Amerikalalararo sud kabilar doirasida ko'rib chiqish mumkin. Keltirilgan

misollarda organning tuzilishi, yakka sudyalari va palatalarning vakolatlari, shuningdek qarorni ifodalash usuli ishtirokchi davlatlarning milliy sud muassasalari tashkil etilishi va faoliyati bo'yicha shakllangan tajribaga asoslanadi. Bunda sudning yurisdiksiyasi va uning qarorlarining majburiylik darajasi ham aniqlanadi.

Kvazi sud organlari, bir tomondan, sud organlariga o'xshab, xalqaro shartnoma ishtirokchisining tegishli murojaati mavjud bo'lgan taqdirda (ba'zi hollarda shaxslar yoki shaxslar guruhining murojaati bo'lganda ham) nizoni hal qilishda ishtirok etadi, boshqa tomondan, ishtirokchi mamlakatlarda xalqaro shartnoma qoidalariga rioya etilishini muntazam ravishda monitoring qilish va bir qator hollarda tergovni boshlash vakolatiga ega (Qiynoqlarga qarshi qo'mita, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita, Majburiy yo'qolishlar bo'yicha qo'mita va boshqalar).

Mexanizmlarning tarkibiy tuzilishiga ko'ra tasniflanishi ham mavjud bo'lib, unga yakka shaxsli va guruhli mexanizmlarni kiritish mumkin.

Faoliyat obyektiga ko'ra mexanizmlar shikoyatlarni ko'rib chiqish va tizimli himoya mexanizmlari sifatida tasniflanadi. Bu tasnif shartlidir, chunki ko'pincha mexanizmning vakolati taqdim etilgan shaklda inson huquqlariga rioya etilishini nazorat qilishni birgalikda amalga oshirishni nazarda tutadi. Biroq, ushbu tasnif doirasida asosiy e'tibor mexanizmning huquqiy tabiatiga qaratiladi (Inson huquqlari bo'yicha qo'mita va Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar bunga misol bo'ladi). Faoliyat muddati mezoniga ko'ra mexanizmlar vaqtinchalik va muddatsiz turlarga ajratiladi.

Xulosa. Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish huquqiy davlatning eng ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. Bunda himoyani nafaqat milliy darajada, balki umume'tirof etilgan jahon standartlari va tamoyillariga muvofiq xalqaro darajada ham amalga oshirish har bir shaxs uchun ham ahamiyatlidir. Shu bois ham O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasi 55-moddasiga ushbu norma mustahkamlandi [8].

Inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish bo'yicha xalqaro huquq ham nazariy, ham me'yoriy darajada rivojlanishda davom etmoqda. Inson huquqlari konsepsiyasining shakllanish tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, vaqt o'tishi bilan inson huquqlari doirasi tobora kengayib bormoqda va hozirgi kunda ushbu mavzuga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa inson huquqlarini himoya qilishning turli jihatlarini to'liqroq qamrab olishda namoyon bo'lmoqda [9]. Hozirgi vaqtda ushbu mavzu bo'yicha ko'plab xalqaro-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan va qabul qilingan bo'lib, ular ham sud, ham suddan tashqari turli xil nazorat organlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Ular faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan davlatlarning o'z hududida inson huquqlariga oid umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy standartlarni milliy qonunchilikka tatbiq qilish hamda ijrosini ta'minlashga bog'liq hisoblanadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Свешникова Л.Н., Храмова О.Е. Международные механизмы защиты прав и свобод человека и гражданина// Matters of Russian and International Law. 2018, Vol. 8. Issue 3A. – P. 145-146.
2. Rhona K.M. Smith. Textbook on International Human Rights (6th edn). Oxford University Press, 2014. // 72-87-sahifalar.Osnovnye dogovory po pravam cheloveka. OHRCR, 2006. [El. resurs]: <https://www.ohchr.org/Documents/Publications/CoreTreatiesru.pdf>
3. Civil and Political Rights: The Human Rights Committee <https://www.ohchr.org/sites/default/files/Documents/Publications/FactSheet15rev.1en.pdf>

4. International Human Rights Institutions, Tribunals, and Courts. International Human Rights. Springer Reference. 2018. – P. 98
5. Resolution adopted by the General Assembly on 15 March 2006. 60/251. Human Rights Council. <https://documents.un.org/doc/undoc/gen/n05/502/66/pdf/n0550266.pdf>
6. Троицкий С.В. Определение отрасли современного международного права // Вестник Московского университета МВД России. 2011. № 5. С. 146-148.
7. Котляров С.Б., Чичеров Е.А. Институты гражданского общества – феномен правового государства // Право и образование. 2017. № 7. С. 119.
8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
9. Mirzayevich, N. M. (2023). LAW ENFORCEMENT REFORM IN UZBEKISTAN: ORIENTATION TO THE PROTECTION OF HUMAN INTERESTS. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 5(08), 136-141.
10. Daniel Moeckli et al. International Human Rights Law. Oxford Univ. Press 2018.
11. Международная защита прав человека: учебник /отв. ред. А. Х. Абашидзе. – Москва: РУДН, 2017. – С. 123.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).